

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**



**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim  
muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga  
qabul qilish**

**60410200- buxgalteriya hisobi yo'nalishiga kirish sinovlari dasturi va baholash  
mezoni**

**Tuzuvchilar:** Yu.U.Sunnatov – BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri.

N.X.Kuliyev – BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika dotsenti, i.f.n..

S.O.Xomidov - BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika dotsenti, i.f.f.d (PhD).

**Taqrizchilar:** M.A. Oripov - BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti, i.f.n.

F.M. Raxmatullayeva - BuxDU, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD).

Dastur Buxoro davlat universitetining 2025 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan.

## KIRISH

Har tomonlama kamol topgan yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi fan iqtisodiyot fanining ushbu dasturi jamiyatning iqtisodiy negizi, uning tarkibiy qismlari, umumiqtisodiy qonunlar va kategoriyalar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va ularning amal qilish qonuniyatlari, bozor iqtisodiyotining tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish va unga ta'sir etuvchi omillar, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyalari kabi masalalarni qamrab olgan.

«Iqtisodiyot» fani talabalarni jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushinishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Shuningdek, bu fan jamiyatning har bir a'zosini g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

## ASOSIY QISM

Iqtisodiyot tushunchasi va uning qamrov jihatidan turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarish fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni. Iqtisodiy resurslarning mazmuni va turkumlanishi. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot oldidagi muammolar.

Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq va g'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Iqtisodiyotning fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fiziokratlar, ingliz klassik iqtisodiy maktabi, marksizm va marjinalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

Iqtisodiyot fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar.

Iqtisodiyot fanining vazifalari. Iqtisodiyotning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiyot – barcha iqtisodiy fanlarning uslubiy poydevori va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi ekanligi. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini tahlil qilish va bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanining roli. Iqtisodiyot fanining talaba-yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda va milliy istiqloq g'oyasini singdirishdagi ahamiyati.

Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Iqtisodiy qonunlar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganish usullari: ilmiy abstraktsiya, induktsiya va



deduktsiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ikki tomonlama yondashuv, empirik usul va farazlardan foydalanish. Mikro va makroiqtisodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilda matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Pozitiv va normativ usullar.

### **Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari**

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formatsion, madaniylashtirish (sivilizatsiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya. Sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish tiplari. Sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperatsiya, manufaktura va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industrilashishgacha bo'lgan jamiyat, industrilashgan jamiyat, yuqori industrilashgan (axborotlashgan) jamiyat.

Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni: egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish. Mulk obyekti va subyekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlar.

Mulk shakllarining tasniflanishi. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk va aralash mulk.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliyalashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

### **Bozor iqtisodiyotining mazmuni va amal qilishi**

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining subyektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari.

Bozor iqtisodiyotining afzalliklari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Iqtisodiy sub'ektlar harakatining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining boshqa ijobiy jihatlar. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari va salbiy jihatlar.

"Bozor" va "bozor iqtisodiyoti" tushunchalarining o'zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning obyektlari va subyektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanish diagrammasi.

Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi muassasalarini guruhlash yo'nalishlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

### **Talab va taklif nazariyasi. Bozor muvozanati**

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o'rni bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig'i.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar. Egiluvchanlik koeffitsientini hisoblash usullari.

Iste'molchi xatti-harakati nazariyasi. Iste'molchining afzal ko'rishi. Nafililik funktsiyasi. So'nggi qo'shilgan nafililik. Nafililikni maksimallashtirish qoidasi. Iste'molchining muvozanatli holati. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik kartasi. Iste'molchi byudjetining cheklanganligi. Byudjet chizig'i. Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.

### **Raqobat va monopoliya**

Raqobatning mohiyati va obyektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasidagi va narxsiz raqobat, g'irrom va halol raqobat. Damping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k.

Monopoliyaning mohiyati va uning vujudga kelishi sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopoliyalarning turlari: sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya. Tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner koeffitsienti. Monopolistik birlashmalar shakllari. Monopoliyalarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar. Shumpeter gipotezasi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi qonunchilik.

O'zbekistonda raqobat muhitining kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Monopoliyaga qarshi siyosatning natijalari.



### Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari

Narxning mazmuni va uning obyektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari.

Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nufuzli, demping va dotatsiyalangan narxlar. Shartnomaviy, erkin va tartibga solinuvchi narxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlar. Narx diapazoni. Narx pariteti.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlar. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. "Ergashish" va "inkor etish" holatlari. Narx bo'yicha etakchilik.

Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

### Tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik kapitali va uning aylanishi

Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni. Tadbirkorlik faoliyati nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va rivojlanish shart-sharoitlari.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa hosila shakllari. Kooperativ, xususiy va yakka tartibdagi tadbirkorlik. Korxona tadbirkorlik faoliyatining asosiy va boshlang'ich bo'g'ini. Korxonalar faoliyatining tashkil qilinishi. Aksiyadorlik jamiyati va aksiyadorlik kapitali. Aksiya va uning turlari. Aksiya kursi. Dividend va ta'sischi foydasi. Nazorat paketi. Obligatsiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment — korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning asosiy maqsadi va vazifalari.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi va rag'batlantirilishi.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarining doiraviy aylanishi.

Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqti va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va qayta tiklanishi. Amortizatsiya va uning normasi. Jadallashgan amortizatsiya. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.

### Korxona (firma) xarajatlari va foydasi

Ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish

xarajatlarning mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Me'yordagi foyda. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. Doimiy, o'zgaruvchi va umumiy (yalpi) xarajatlarning grafikdagi tasviri. O'rtacha va umumiy xarajatlar. O'rtacha xarajatlarning egri chiziqlari. So'nggi qo'shilgan xarajatlar tushunchasi. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi:  $MP_L / P_L = MP_A / P_A = MP$  har qanday omil /  $P$  har qanday omil.

Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Natijalar o'zgarishiga unumdorlik pasayib borishi qonunining ta'siri. Ishlab chiqarish miqyosining ijobiy samarasi. Tannarx.

Korxona (firma) ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlar va daromadlar egri chizig'i. Zarar ko'rmalik nuqtasi. Foydaning tarkib topish bosqichlari. Foyda miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foyda va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Sof foyda. Foyda normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foyda normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Korxonalar bankrot bo'lishi (sinishi) va sanatsiya qilinishi. Korxonalar foydasini maksimallashtirish sharti  $P=MC$  va uni ko'paytirish yo'llari. Foyda miqdorini ko'paytirishda moddiy resurslarni tejashning ahamiyati.

### Ish haqi va mehnat munosabatlari

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. "Ishlab chiqarishning uch omili", qo'shilgan omil unumdorligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarning kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Kasb bo'yicha malaka darajasini litsenziyalash. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Ochiq va yopiq turdagi kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.

### Agrar munosabatlar va agrobiznes

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdorligi. Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasi nazariyasiga bo'lgan turli xil yondashuvlar va ularning tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differentsial renta, absolyut renta,



monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

Agrosanoat integratsiyasi. Agrosanoat majuasi va uning sohalari. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon, fermer va shirkat xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat birlashmasi, agrosanoat kombinati.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. Yerga mulkchilik munosabatlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralari. SHaxsiy tomorqalarning kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. Xo'jalik yuritishning samarali shakllarini rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish. Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish.

#### **Milliy iqtisodiyot va uning makroiqtisodiy o'lchamlari.**

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Milliy hisoblar tizimi. YalMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YalMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investitsion sarflar. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YalMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investitsion sarflar, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar.

Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiq, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxining o'zgarishi, samaradorlikning o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida yalpi talabning qisqarishi hamda uni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar.

#### **Iqtisodiy o'sish va milliy boylik**

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. «70 miqdori qoidasi». Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy o'sishning omillari. Yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqtisodiy o'sishni belgilovchi xususiy ko'rsatkichlar. Keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko'rsatkichlari. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.

Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishi va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish

samaradorligini ta'minlashda tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanishning ahamiyati.

#### **Yalpi ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik**

Yalpi ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchini takror hosil qilish. Yalpi ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. FTTni ishchi kuchining sifat jihatdan takomillashuviga ta'siri. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchining qiymati. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi.

Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institutsional-sotsiologik maktab kontseptsiyalari. SHartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi. Bandlik modellari. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori kontseptsiyasi.

Ishsizlik va uning turlari. Friksion, tarkibiy va tsiklik ishsizlik. Institutsional, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ishsizlik. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ishsizlik darajasi va uni aniqlash. Ishsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar. A.Ouken qonuni. Ishsizlik va inflyatsiyaning o'zaro bog'liqligi.

O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoyalash borasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

#### **Moliya tizimi va moliyaviy siyosat**

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning obyektlari va subyektlari. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet taqchilligi va davlat qarzlari, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat krediti. Davlat tashqi qarzi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq imtiyozlari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat.

O'zbekistonda soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi. Soliq sohasini yanada erkinlashtirishning asosiy yo'nalish va natijalari.

#### **Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli**

Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. Inflyatsiya va uning kelib chiqish sabablari. Inflyatsiya darajasi va sur'ati. Talab va



taklif inflyatsiyasi. Inflyatsiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyatsiya. Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, Davlatning inflyatsiyaga qarshi siyosati.

Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.

O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi. So'mning xarid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash. Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

##### **Asosiy adabiyotlar**

1. SHodmonov SH.SH., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. – 728 bet.
2. O'lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: «SHarq», 2006. – 480 bet.
3. Stankovskaya I.K., Strelets I.A. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. 3-e izd., ispr. – M.: «Eksmo», 2009. – 448 str.

##### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 7 fevral, 2017 yil, Toshkent shahri
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali ma'ruza 2020-yil 7-dekabr.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz 2021-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari 2022 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // O'zbekiston Milliy axborot agentligi. / Xalq so'zi. 2020 yil, 25 yanvar
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // O'zbekiston Milliy axborot agentligi. / Xalq so'zi. 2021 yil, 23 yanvar

8. Shodmonov SH., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2008. – 320 bet

9. Shodmonov SH., G'afurov U. Iqtisodiyot asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007. – 192 bet

10. SHodmonov SH., G'afurov U. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Ilmiy-ommabop nashr. – T.: TDIU, 2007. – 76 bet

11. Nosova S.S., Novichkova V.I. Ekonomicheskaya teoriya dlya bakalavrov. Uchebnoe posobie. – M.: KNO RUS, 2009. – 368 str.

12. Xudokormov A.G. Ekonomicheskaya teoriya: Noveyshie techeniya Zapada. – M.: INFRA-M, 2009. – 416 str.

#### **Internet saytlari**

1. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
2. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) – O'zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
3. [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz) – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.

**TEXNIKUMLARNI MUVAFFAQIYATLI TAMOMLAGAN  
BITIRUVCHILARNI OLIY MA'LUMOT OLISH BO'YICHA  
KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI**

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

| <b>Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | <b>Baholash ballari</b> |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|
| <b>a)</b> berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.             | 22-25                   |
| <b>b)</b> berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa. | 19-21                   |
| <b>d)</b> berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.                                                                                                                                                                     | 14-18                   |
| <b>e)</b> berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.                                                                                                                                                                                                                                    | 0-13                    |

**Apellyatsiya tartibi**

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.